

MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATI BADIYYATI

Urganch Innovatsion universiteti

“O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrası

o‘qituvchisi **Atajonova Aysha Qo‘zibayevna**

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyati vakili Matnazar Abdulhakim va uning she’rlari badiiyatiga to‘xtalib o‘tilgan.

Annotation: this article focuses on the representative of modern Uzbek poetry Matnazar Abdulhakim and the artistry of his poems.

Аннотация: в данной статье речь пойдет о представителе современной узбекской поэзии Матназаре Абдулхакиме и художественности его стихов.

Kalit so‘zlar: Matnazar Abdulhakim, badiiyat, mavzu, mahorat.

Key words: Matnazar Abdulhakim, artistry, theme, skill.

Ключевые слова: Матназар Абдулхаким, артистизм, тема, мастерство.

Milliy adabiyotimiz rivojida Xorazm adabiy muhiti vakillarining ham o‘ziga yarasha salmoqli hissasi bor. Alloh nazar qilgan bu zamin o‘z bag‘rida ilm-u fan osmonida yorqin yulduz kabi porlagan olim-u fozillardan tashqari, inson ruhiyatining tom ma’noda davolovchisiga aylangan buyuk so‘z salaflarini ham yetishtirgan xosiyatli tuproqdir. Ana shunday buyuk so‘z salaflaridan biri, Xorazmning bulbulzabon shoiri va tarjimoni Matnazar Abdulhakimdir.

Matnazar Abdulhakimov 1948-yilning 20-fevralida Urganch tumanidagi Qorovul qishlog‘ida tug‘ilgan. Sobiq ittifoq davrida Rossiyaning Taganrog Davlat pedagogika institutida tahsil olgan. “Tiniq tonglar” (1982), “Qor qo‘shig‘i”, “Yonimdagi daryolar”, “Qorachiqdagi dunyo” (1994), “Oydinlik”, “Bir quchoq gul” (1997) kabi va yana bir qator kitoblari chop etilgan. Badiiy tarjima bilan ham shug‘ullangan.

Shoir she'rlari mavzulari turfa xil, jumladan, ishq, Vatan, tabiat haqida va shuningdek, falsafiylikka yo'g'rilgan she'rlari bir talay. Ularda tasvirlangan hayot go'zalliklari, zohiriy va botiniy olam haqida ilgari surilgan fikrlar, tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlaridagi bejirim o'xshatishlarni anglagan insonlar Matnazar Abdulhakim she'rlarini shunchaki o'qib qo'yaverishni o'zlariga ep ko'rmasligi tabiiy hol. Yuqorida aytganimiz fikrlarning isboti sifatida Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi O'rozboy Abdurahmonovning serqirra ijodkor haqidagi fikrini keltirib o'tmoqchimiz: *"Men bu dunyoga nimaga kelganini bilmasdan ketganlarning ko'pini ko'rganman, Lekin Matnazar bekorga kelmadi, u shoirlik olamida Matnazar dunyosini yaratib ketdi..."*. Chunki shoir har bir she'rida yurak yeta olgan dardning mukammal badiiy qiyofasini yarata oldi desak, darhaqiqat, mubolag'a bo'lmaydi. Shoirning quyidagi satrlarini o'qigan zahotimiz qalbimizda qandaydir til bilan ifodalab bo'lmaydigan qo'zg'alish paydo bo'ladi:

Shunday lochin bo'lsang, qilganda hamla,

Izingdan osmonni boshlasang olg'a.

Shohsupani emas, tolgaoning damlar

Kimsasiz qoyani qilsang qo'nalg'a.

Shoir bu satrlar orqali nima demoqchi ekanligini she'rni shunchaki o'qishdan anglab bo'lmaydi, buning uchun qalb qo'rini bag'ishlash kerak. Shoir lochin misolida aslida butun bir she'riyat olamining gultojlari hisoblanmish shoirlar dunyosini, ularning ichki olamini tasvirlagan. Ya'ni shoirlar aslida qanday bo'lmog'i kerak? Bu savolga javobni she'rni tahlil qilish davomida yanada oydinlashtirib olamiz. Shoirlar o'zlarining ezgulikka bag'ishlovchi she'rlari bilan xalqni o'z ortidan ergashtirib bilsagina, ularning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish orqali qandaydir tushkun holatdan chiqara olsagina haqiqiy shoir bo'ladi. Haqiqiy shoir o'zining yutuqlaridan sarmast bo'lgan holda faqat shohsupama shohsupa yurmaydi, aksincha xalq dardi shoir dardiga aylansa, shu dardlarni o'z dardidek his qilib ijodida buni aks ettirsa, yorug' kunlarning hali oldinda ekanligini xalqiga chin yurakdan anglatsagina u haqiqiy shoirlikni davo qilsa arziydi. Matnazar Abdulhakim bu

misralari bilan lochin misolida shoirlarni, osmon misolida esa xalqni nazarda tutib qalam qoqqan. Ya'ni she'rdagi obrazlar chinakam ramziy ma'noga ega desak adashmagan bo'lamiz. Shoirlar haqidagi fikr-mulohazalarini she'rga g'oyat chiroyli tashbehlar ila singdirgan Matnazar Abdulhakim keyingi misralarda ham bu xususda qarashlarini davom ettiradi:

Shunday lochin bo'lsang – quzg'unlarga keng

Osmonni abadiy qilib qo'ysang tor.

Tutsang o'zni bulbul, qumri bilan teng,

Bir qanoting-nomus, bir qanoting-or...¹

Bu yerda shoir quzg'unlar deganda haqiqatni emas, yolg'onni kuylovchi shoirlarni, ya'ni xalqni aldashni o'ziga pesha qilib olgan ayrim qo'shtirnoq ichidagi "ijodkorlar"ni nazarda tutgan, fikri ojizimizcha. Lirik qahramonga murojaat qilar ekan Matnazar Abdulhakim agar sen o'zingni shoirlar ichida eng yaxshisi deb hisoblasang ana shu bu nomga nomunosib "quzg'un"larga osmonni abadiy tor qilib qo'y demoqchi. Qalami o'tkir shoirimiz misra oxirida haqiqiy shoir shiori or va nomus ekanligini, ikki yelkasida esa doim shularni ko'tarib yurishini juda chiroyli o'xshatish bilan ta'kid etadi. Qush bitta qanot bilan ucha olmaganidek or va nomus ham haqiqiy shoir uchun birday zarur. She'r yakunida Matnazar Abdulhakim chinakam shoir ruhi hech qachon o'lmasligiga, uning yodi har doim insonlarning yuragida saqlanishiga ishora qiladi:

Iltilot kutmasang biron-bir jondan,

Quadrat vujudingni nogoh tark etsa,

Qanotingni shartta yig'ib, osmondan

¹ Tanlangan asarlar. Abdulhakimov. M. T., «G'afur G'ulom», 2017, 179-b.

Yuraklarga qarab sho‘ng‘isang-ketsang.

“Biz bu dunyoda - ro‘yi zaminda kechirayotgan hayotimizdan, ilohiy ko‘zgu uzra o‘tayotgan kunlarimizdan masrur bo‘lmog‘imiz, bu hayotni ilohiy bir tuhfa sifatida e‘zoz etmog‘imiz, Yaratgan tomonidan bizga naqadar ulkan saodat baxsh etilganligini anglash baxtidan mas‘ud va mas‘ul bo‘lmog‘imiz ham qarz, ham farz”², - deb yozgandilar shoiri davronimiz Matnazar Abdulhakim.

Ko‘ngil kuychisining quyidagi she‘rida chinakam ko‘ngil xohishi, dil buyrug‘i yurakka izhor qilinmoqda:

Men seni na do‘st, na g‘animga aytdim,

Ravo ko‘rganim yo‘q har kim har kimga.

Aytsam seni men o‘z sha‘nimga aytdim,

Otsam seni otdim o‘z yuragimga!³

Adibimizning bizga meros fikr ummonida yana qanchadan qancha dur-u javohirlar bor. Bu ummonga sho‘ng‘igan she‘riyat ixlosmandlari hech qachon noumid bo‘lmaydilar. *She‘r:*

Bizlar o‘lmagaymiz, sizlarning yodlov,

Jon baxsh etar marhum jonlarga.

Qaytgaymiz, bizlarni yo‘qlagan zahot,

Tirilib muborak xonadonlarga.

² To‘rtinchi muallim saboqlari. Q.Solayev. «Xorazm», 2014, 6-b.

³ Tanlangan asarlar. Abdulhakimov. M. T., «G‘afur G‘ulom», 2017, 180-b.

Bu Matnazar Abdulhakimning so‘nggi satrlari. Agar bu arjumand so‘zlarni dunyodan o‘tgan odamning vasiyati deb qabul qilsak, biz tiriklarga yaqinlarimizning ruhlari oldidagi majburiyatlarimiz yanada oydinlashadi. Bu borada atoqli o‘zbek shoiri va yirik jamoat arbobi Abdulla Oripov “Ayni kamolga yetib turgan bir paytda Matnazar Oramizdan ketdi. Diydorku qiyomatga qolgandir, biroz uning ijodi haqida yozish siz-u biz tiriklarning bo‘ynimizda turibdi...”⁴, -deganlarida naqadar haq bo‘lganlar.

Darhaqiqat, shoirning har bir she‘ri uning yurak tegirmonidan o‘tkazib yozilgan. Ya‘ni, she‘rlarda shoirning qalb kechinmalari ham hamohanglashib ketgan. Shu boisdan ham shoir she‘rlari shu bugungacha tomir-tomirimizga xos hislarimizday chaqnab-charaqlab kirib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘rtinchi muallim saboqlari. Q.Solayev. –Urganch: Xorazm, 2014.
2. Tanlangan asarlar. Abdulhakimov.M. -Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017.
3. Ustoz haqida so‘z. Matkarimov.Sh. –Urganch: Xorazm, 2013.
4. Xorazmlik ijodkorlar. Ollaberganov.I. –Urganch: Xorazm, 2019.
5. Tafakkur chorrahalarida. Abdulhakimov.M. –Urganch: Xorazm, 2013.

⁴ Ustoz haqida so‘z. Matkarimov.Sh., «Xorazm», 2013, 14-b.